


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Iloxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	



PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQUARISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH

Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich

“O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari” uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
iqtisodiyot fanlari nomzodi

Annotatsiya. Paxta-to'qimachilik klasterlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi omillar ilmiy jihatdan baholandi. Tadqiqotda klasterlarning ishlab chiqarish salohiyati, innovatsion faolligi, texnologik modernizatsiyasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati hamda investitsiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Shuningdek, innovatsion mahsulotlarni yaratishga ta'sir etuvchi institutsional, moliyaviy va tashkiliy omillar tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar innovatsion faoliyatni rivojlantirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda klasterlar raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyatlarini ko'rsatdi. Taklif etilgan yondashuv innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun ishonchli ilmiy-metodik asos yaratdi.

Kalit so'zlar: paxta-to'qimachilik klasteri, innovatsion mahsulot, innovatsion faoliyat, texnologik modernizatsiya, investitsiyalar, raqobatbardoshlik, eksport, klaster rivojlanishi.

Аннотация. Проведена научная оценка факторов, стимулирующих производство инновационной продукции в хлопково-текстильных кластерах. В рамках исследования на основе сравнительного анализа изучены производственный потенциал кластеров, инновационная активность, технологическая модернизация, научно-исследовательская деятельность и инвестиционные процессы. Кроме того, системно проанализированы институциональные, финансовые и организационные факторы, оказывающие влияние на создание инновационной продукции. Полученные результаты подтвердили возможности развития инновационной деятельности, расширения производства продукции с высокой добавленной стоимостью, повышения экспортного потенциала и укрепления конкурентоспособности кластеров. Предложенный подход сформировал надёжную научно-методическую основу для дальнейшего развития инновационных процессов в отрасли.

Ключевые слова: хлопково-текстильный кластер, инновационная продукция, инновационная деятельность, технологическая модернизация, инвестиции, конкурентоспособность, экспорт, развитие кластеров.

Abstract. A scientific assessment was conducted of the factors stimulating innovative product development in cotton-textile clusters. The study comparatively examined production capacity, innovation performance, technological modernization, research and development activities, and investment processes within cluster-based production systems. In addition, institutional, financial, and organizational factors influencing the development of innovative products were systematically analyzed. The findings demonstrated significant opportunities to strengthen innovation activities, expand the production of high-value-added products, enhance export potential, and improve the competitiveness of cotton-textile clusters. The proposed approach provides a reliable scientific and methodological foundation for supporting innovation-driven development and strengthening the long-term competitiveness of the cotton-textile industry.

Keywords: cotton-textile cluster, innovative products, innovation activity, technological modernization, investment, competitiveness, exports, cluster development.

KIRISH

O'zbekiston yengil sanoatining tayanch bo'g'ini sifatida paxta-to'qimachilik klasterlari nisbatan qisqa muddat ichida yaxlit ishlab chiqarish tizimiga aylandi. Tarmoqning hududiy tashkil etilishi paxta xom ashyosini yetishtirish, uni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yagona tashkiliy doirada birlashtirish imkonini berdi. 2020-yilda respublikada faoliyat yuritgan 96 ta klaster paxta ekiladigan maydonning 87,7 foizini, ya'ni 906 ming gektardan ortiq maydonni qamrab oldi [1]. Bunday qamrov klaster modelining xom ashyo bazasi ustidan barqaror nazoratni ta'minlaganini hamda ishlab chiqarish zanjirining uzluksizligini mustahkamlaganini ko'rsatadi.



Tarmoqning institutsional va huquqiy asoslari izchil ravishda takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 1-maydagi** "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-71-son¹ Farmoni bilan to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish yangi bosqichga olib chiqildi hamda ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini va chuqur qayta ishlash texnoparklarini shakllantirish yo'nalishlari belgilandi [2]. Davlat siyosatining ushbu yo'nalishga qaratilgani innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish uchun barqaror tashkiliy muhitni shakllantirishga xizmat qildi.

Tarmoqning iqtisodiy ko'lami ham sezilarli darajada kengaydi. 2023-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksporti 3,1 milliard dollarni tashkil etdi, ishlab chiqarish hajmi esa 94 trillion so'mga yetib, so'nggi yetti yilda 4,2 barobar oshdi. Tarmoqdagi 6 mingdan ortiq korxona 570 ming nafar aholini doimiy ish bilan ta'minladi [3]. Ushbu ko'rsatkichlar klasterlashtirish siyosatining ishlab chiqarish quvvatlari va bandlikni oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Strukturaviy o'zgarishlar mehnat bozorida ham yaqqol namoyon bo'ldi. To'qimachilik sanoatida band aholi soni 2018-yildagi 188 ming kishidan 2024-yilda qariyb 600 ming kishiga yetdi. 2023-yildan boshlab mamlakat ishlov berilmagan paxtaning butun hajmini mustaqil ravishda ip-kalavaga qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi [4]. Mahalliy qayta ishlashning to'liq ta'minlanishi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish uchun zarur asosni yaratdi.

Shu bilan birga, eksport tarkibida xom ashyoga yaqin mahsulot guruhlarining ulushi hali ham sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. **2024-yilning yanvar-iyul oylarida** eksport qilingan 1,8 milliard dollarlik to'qimachilik mahsulotlari tarkibida kalava-ip 45,8 foizni, tayyor to'qimachilik mahsulotlari esa 38,5 foizni tashkil etdi. Tarmoq mamlakat umumiy eksportining 12 foizini ta'minladi [5]. Toladan va ipdan yuqori qo'shilgan qiymatli, dizayn hamda texnologik jihatdan murakkab innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish tarmoqning istiqboldagi ustuvor rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi paxta-to'qimachilik klasterlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi omillarni tizimli ravishda ajratish hamda ularni rasmiy ma'lumotlar asosida baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster yondashuvining nazariy negizini M. Porterning ishlari tashkil etadi. Uning fikricha, hududiy jihatdan jamlangan o'zaro bog'liq korxonalar va institutlar raqobatbardoshlikka uch yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: korxonalar unumdorligini oshiradi, innovatsiyalar yo'nalishi va sur'atini tezlashtiradi hamda yangi tadbirkorlik subyektlarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi [6]. Mazkur uch mexanizm innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni klaster ichidagi yaqinlik orqali rag'batlantirishning nazariy asoslarini tushuntiradi.

M. Delgado, M. Porter va S. Stern bog'liq tarmoqlar majmui sifatidagi klasterlarni o'lchanadigan tahlil obyektiga aylantirib, aglomeratsiya samaralari hamda tarmoqlararo aloqalarning mintaqaviy o'sish va ixtirochilik faolligi bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatdi [7]. Ushbu yondashuv klaster ichidagi aloqalarni miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi.

H. Schmitz rivojlanayotgan mamlakatlar klasterlari misolida «jamoaviy samaradorlik» tushunchasini asoslab berdi. Uning ta'kidlashicha, korxonalarning birgalikdagi maqsadli harakatlari va tashqi samaralar ularning yakka holdagi imkoniyatlariga nisbatan yuqoriroq natijalarni ta'minlaydi [8]. Mazkur konsepsiya kichik va o'rta korxonalarning umumiy infratuzilma hamda bilim almashinuvi orqali innovatsion faoliyatga jalb etilishini izohlaydi.

C. Ketels Porter qarashlarining amaliy-siyosiy talqinini rivojlantirib, klaster siyosatini hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasi sifatida tavsiflaydi hamda davlat institutlarining muvofiqlashtiruvchi rolini alohida ta'kidlaydi [9]. Mazkur yondashuv davlat tomonidan qo'llaniladigan rag'batlantirish chora-tadbirlarining klasterlar samaradorligiga ta'sirini nazariy jihatdan asoslaydi.

To'qimachilik klasterlariga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda tarmoq, asosan, raqobatbardoshlik strategiyasi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tegishli tadqiqotlarda O'zbekiston modelining vertikal integratsiyani jadallashtirish va eksport salohiyatini oshirish borasidagi natijalari e'tirof etiladi. Shu bilan birga, korxona hukmronligiga asoslangan klaster modelidan mustaqil boshqaruv bo'g'inlari va kichik korxonalar ekotizimiga tayangan tarmoqli klaster modeliga o'tish, shuningdek, raqamli va «yashil» muvofiqlik tizimlarini joriy etish istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari sifatida baholanadi [10]. Ushbu yondashuv tola va ipdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tishning institutsional shart-sharoitlarini belgilaydi.

O'zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlari ham mazkur nazariy bazani boyitadi. R. Xayitov paxta-to'qimachilik klasterlarining mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishdagi salohiyatini oshirish masalalarini tadqiq etgan [11]. Klasterlarda innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirishning prognozlash usullarini takomillashtirishga

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 1-maydagi** "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-71-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-6908347>



bag'ishlangan tadqiqotlarda esa strategik rejalashtirish hamda ekspert baholash usullarining tarmoqqa tatbiq etilishi ilmiy jihatdan asoslangan [12]. Ushbu ilmiy ishlanmalar mahalliy sharoitda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi omillarni baholashning uslubiy asoslarini yanada mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Baholash sifatli-analitik va qiyosiy yondashuvga, shuningdek, rasmiy hujjatlar hamda statistik manbalarni izchil o'rganishga asoslandi. Nazariy negiz sifatida klaster raqobatbardoshligi konsepsiyasi [6] va jamoaviy samaradorlik nazariyasi [8] qabul qilindi. Mazkur ikki yondashuv innovatsion faollikni klaster ichidagi tashkiliy yaqinlik va birgalikdagi harakatlar orqali izohlash imkonini berdi.

Empirik baza sifatida davlat organlari tomonidan rasman e'lon qilingan ma'lumotlardan foydalanildi. Ishlab chiqarish, eksport va bandlikka oid ko'rsatkichlar [3], mehnat bozori hamda qayta ishlash darajasiga oid ma'lumotlar [4], shuningdek, eksport tarkibi bo'yicha statistik hisobotlar [5] tahlil doirasiga kiritildi. Klaster subyektlarining tarkibiy mezonlari va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi normativ-huquqiy hujjatlar asosida aniqlandi [13].

Baholash modeli rag'batlantiruvchi omillarni olti guruhga ajratish tamoyiliga asoslandi: institutsional qo'llab-quvvatlash, moliyaviy rag'batlantirish, texnologik infratuzilma, inson kapitali, qiymat zanjiri integratsiyasi hamda eksport bozori talabi. Har bir omil rasmiy manbalarda keltirilgan tasdiqlangan ko'rsatkichlar bilan moslashtirildi, bu esa baholashni mavhum taxminlardan xoli holda, dalillarga tayangan tarzda amalga oshirishni ta'minladi. Omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir 1-rasmda keltirilgan konseptual sxema orqali umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Omillarni rasmiy ko'rsatkichlar bilan moslashtirish tarmoqdagi rag'batlantirish mexanizmlarining amaldagi holatini aks ettirdi. Quyidagi jadvalda har bir omil tasdiqlangan miqdoriy yoki hujjatli dalillar hamda ularning manbalari bilan birgalikda keltirilgan.

1-jadval

Innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi omillar va ularning rasmiy ko'rsatkichlari²

Rag'batlantiruvchi omil	Asosiy ko'rsatkich (rasmiy ma'lumot)	Manba
Institutsional qo'llab-quvvatlash	2020-yilda 96 ta klaster paxta maydonining 87,7 foizini (906 ming gektardan ortiq) qamrab oldi	[1]
Huquqiy-tartibga soluvchi asos	PF-71 (2024) bilan sohani rivojlantirishning yangi bosqichi hamda ixtisoslashgan zonalar belgilandi	[2]
Moliyaviy rag'batlantirish	Tarmoq ishlab chiqarishi 94 trln so'mga yetdi va 7 yil ichida 4,2 barobar oshdi	[3]
Inson kapitali va bandlik	Band aholi soni 188 ming nafardan (2018) qariyb 600 ming nafarga (2024) yetdi	[4]
Qiymat zanjiri integratsiyasi	2023-yildan boshlab paxtaning butun hajmi mamlakat ichida ip-kalavaga qayta ishlandi	[4]
Eksport bozori talabi	To'qimachilik mahsulotlari 2024-yilda umumiy eksportning 12 foizini ta'minladi	[5]

Institutsional omil baholashda yetakchi o'rin tutdi. Klasterlarning paxta maydonlari bo'yicha keng qamrovi [1] xom ashyo bazasi ustidan barqaror nazoratni ta'minlab, innovatsion o'zgarishlar uchun zarur ishlab chiqarish ko'lamini yaratdi. Ushbu ko'lam Porter tomonidan ta'kidlangan unumdorlik va innovatsiya samaralarining yuzaga chiqishi uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi [6].

Huquqiy asosning izchil takomillashuvi institutsional omilning ta'sirini yanada kuchaytirdi. PF-71 doirasida ixtisoslashgan zonalar va chuqur qayta ishlash texnoparklarining shakllantirilishi [2] texnologik infratuzilma omili bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari joylashtiriladigan hududiy platformalar yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish uchun zarur moddiy asosni yaratadi. Davlat institutlarining muvofiqlashtiruvchi roli klaster siyosati samaradorligini izohlovchi nazariy qoidalar bilan ham uyg'unlashadi [9].

Moliyaviy rag'batlantirish natijalari ishlab chiqarish dinamikasida yaqqol namoyon bo'ldi. Tarmoq hajmining yetti yil ichida 4,2 barobar oshib, 94 trillion so'mga yetgani [3] investitsiyalar va imtiyozlar oqimining barqaror




iqtisodiy o'sishga xizmat qilganini ko'rsatadi. Ushbu o'sish jamoaviy samaradorlik nazariyasida ta'kidlangan birgalikdagi harakatlar va tashqi samaralar mantig'iga mos ravishda shakllandi [8].

Inson kapitali omili tarmoqning eng muhim rivojlanish omillaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Band aholi sonining olti yil ichida deyarli uch barobar ortishi [4] malakali ishchi kuchi salohiyatini kengaytirdi hamda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur kadrlar bazasini mustahkamladi. Klasterlarda mehnat resurslarining jamlanishi yangi bilim va ko'nikmalar almashinuvi uchun qulay muhitni shakllantirdi [7].

Qiymat zanjiri integratsiyasi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishning asosiy shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Paxtaning to'liq hajmini mamlakat ichida ip-kalavaga qayta ishlash imkoniyatining ta'minlanishi [4] qiymat zanjirining quyi bo'g'inini mustahkamladi hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish uchun uzluksiz texnologik asos yaratdi. Tarmoqli klaster modeliga bosqichma-bosqich o'tilishi mazkur integratsiyani yanada chuqurlashtirish imkonini beradi [10].

Eksport bozori talabi omili tarmoqning istiqboldagi o'sish yo'nalishlarini yaqqol namoyon etdi. To'qimachilik mahsulotlarining umumiy eksportdagi salmoqli ulushi [5] mavjud bozor talabining barqarorligini tasdiqlaydi. Ip-kalavadan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish esa ushbu talab tarkibini yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar tomon yo'naltirish imkonini beradi. Mahalliy tadqiqotlarda asoslangan strategik rejalashtirish va prognozlash usullari ushbu jarayonni boshqarishning uslubiy vositalarini taqdim etadi [12], mintaqaviy salohiyatni rivojlantirish yo'nalishlari esa omillarning o'zaro uyg'un ta'sirini yanada kuchaytiradi [11].

Olti omilning o'zaro bog'liqligi 1-rasmda umumlantirilgan. Sxemada institutsional qo'llab-quvvatlash, moliyaviy rag'batlantirish, texnologik infratuzilma, inson kapitali, qiymat zanjiri integratsiyasi hamda eksport bozori talabining innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan o'zaro uyg'un ta'siri aks ettirilgan.



1-rasm. Paxta-to'qimachilik klasterlarida innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi omillarning konseptual sxemasi³

Baholash natijalari tarmoqning yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatdi. Institutsional asos, kengaygan mehnat resurslari hamda to'liq shakllangan mahalliy qayta ishlash zanjiri innovatsion rivojlanish uchun zarur poydevorni yaratdi. Eksport tarkibini yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar tomon yo'naltirish esa tarmoqning keyingi rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida baholandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan baholash paxta-to'qimachilik klasterlarida innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi olti omilni — institutsional qo'llab-quvvatlash, moliyaviy rag'batlantirish, texnologik infratuzilma,

inson kapitali, qiymat zanjiri integratsiyasi va eksport bozori talabini — yagona tizimda umumlashtirdi. Mazkur omillarning rasmiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanishi tarmoqda rag'batlantirish mexanizmlarining amalda samarali faoliyat yuritayotganini hamda ularning o'zaro uyg'un ta'siri innovatsion rivojlanish uchun zarur zamin yaratganini ko'rsatdi.

Birinchidan, qiymat zanjirini ip-kalavadan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'g'inlar hisobiga chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Mavjud to'liq mahalliy qayta ishlash bazasi [4] bunday o'tish uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, texnologik infratuzilma omilini yanada kuchaytirish maqsadida PF–71 doirasida tashkil etilgan ixtisoslashgan zonalar va texnoparklar imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim [2].

Uchinchidan, inson kapitalining kengaygan salohiyatini [4] o'quv va ilmiy-tadqiqot tuzilmalari bilan uzviy bog'lash innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni bilim almashinuvi orqali jadallashtirishga xizmat qiladi [7]. To'rtinchidan, korxona hukmronligiga asoslangan modeldan mustaqil boshqaruv bo'g'inlari va kichik korxonalar ekotizimiga tayangan tarmoqli klaster modeliga bosqichma-bosqich o'tish raqobatbardoshlik hamda innovatsion faollikni yanada oshirish imkonini beradi [10]. Beshinchidan, eksport tarkibini yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar tomon yo'naltirishda strategik prognozlash va ekspert baholash usullaridan tizimli foydalanish samarali natijalarni ta'minlaydi [12].

Omllarning o'zaro mutanosib rivojlanishi paxta-to'qimachilik klasterlarining mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rnini yanada mustahkamlaydi hamda tarmoqning innovatsion salohiyatini izchil ravishda rivojlantiradi [11]. Taqdim etilgan baholash modeli keyingi empirik tadqiqotlar uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi va rag'batlantirish omillarini miqdoriy baholash yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi. Paxta-to'qimachilik klasterlari [Elektron resurs]. – URL: <https://uzts.uz/uzb/paxta-to-qimachilik-klasterlari/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2024-yil 1-maydagi PF–71-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6908347>
3. Sputnik O'zbekiston. O'zbekiston 55 ta davlatga to'qimachilik mahsulotlarini eksport qildi [Elektron resurs]. – 2024. – 6-may. – URL: <https://oz.sputniknews.uz/20240506/uzbekistan-toqimachilik-mahsulot-eksport-43739393.html>
4. World Bank. Weaving a New Future in Uzbekistan's Cotton Sector [Elektron resurs]. – 2025. – 27-may. – URL: <https://www.worldbank.org/uz/news/feature/2025/05/27/weaving-a-new-future-in-uzbekistan-s-cotton-sector>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston 7 oyda 55 ta davlatga to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56469-o-zbekiston-7-oyda-55-ta-davlatga-to-qimachilik-mahsulotlarini-eksport-qilgan>
6. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998 [Elektron resurs]. – URL: <https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=46852>
7. Delgado M., Porter M. E., Stern S. Defining Clusters of Related Industries // NBER Working Paper. – No. 20375. – 2014 [Elektron resurs]. – URL: https://www.nber.org/system/files/working_papers/w20375/w20375.pdf
8. Schmitz H. Collective Efficiency and Increasing Returns // Cambridge Journal of Economics. – 1999. – Vol. 23, No. 4. – P. 465–483 [Elektron resurs]. – URL: <https://academic.oup.com/cje/article-pdf/23/4/465/4803891/230465.pdf>
9. Ketels C. H. M. Clusters and Competitiveness: Porter's Contribution // Competition, Competitive Advantage, and Clusters. – Oxford Academic, 2011 [Elektron resurs]. – URL: <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199578030.003.0010>
10. Textile Industry Clusters as a Competitiveness Strategy // FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2025 [Elektron resurs]. – URL: <https://farspublisher.com/index.php/fars/article/view/550>
11. Xayitov R. B. Mintaqani iqtisodiy rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish // Management, Marketing and Finance. – 2024. – Vol. 2. – Issue 10. – B. 85–89 [Elektron resurs]. – URL: <https://www.jmmf.uz/fileView?id=395>
12. Paxta-to'qimachilik klasterlarida innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirishning prognozlash usullarini takomillashtirish // Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. – 2024 [Elektron resurs]. – URL: <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/article/view/537>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2021-yil 4-dekabrda 733-son «Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qaror [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5760091>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100